



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGI YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.	
15	Mohinur USMONOVA, O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA, Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серик ТУРПАНАЛИЕВ, Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA, O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA, Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA, Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA, Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO‘LATOVA, Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA, O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA, Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA, Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA, “Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)	590
30	Nilufar TURG‘UNOVA, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinov RAXIMOVA, G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA, Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi	599
33	Diyora NE‘MATOVA, Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA, Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV, Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O‘KTAMOVA, Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617

O'ZBEK VA QOZOQ XALQ ERTAKLARIDAGI TURG'UN BIRIKMALARNING QIYOSIY TAHLILI

COMPARATIVE ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN UZBEK AND KAZAKH FOLK TALES

Mohinur USMONOVA,

Samarqand davlat universiteti magistranti
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PBHD9472

Annotation. *This article comparatively analyzes phraseological units in Uzbek and Kazakh folk tales from linguo-folkloristic perspectives. The study examines the semantic features of phraseological expressions, their role in creating artistic images, and their national-cultural significance based on the folk tales “Qilich Botir” and “Qalabay Batyr.” The research also analyzes traditional narrative formulas and the usage of stable expressions in fairy tales, identifying common and distinctive features in Uzbek and Kazakh languages. Furthermore, the semantic field of phraseological units is revealed through theoretical approaches related to comparative folklore studies and phraseology. The results of the study are important for comparative research of Turkic folklore and for identifying the national-cultural characteristics of phraseological units.*

Key words: *folklore, fairy tale, phraseologism, stable expression, comparative folklore studies, linguoculture, Uzbek folk tales, Kazakh folk tales, epic image.*

Kirish. Ertaklar xalq og'zaki ijodining ajralmas bir bo'lagi bo'lib, folklorning bir o'rganish materiali hisoblanadi. Birgina o'zbek xalqida emas, balki butun dunyo bolalari ertaklar bilar hamohangdir. Ertaklar qadimning sarqiti emas, shu sababdan ham ko'pgina xalqlar ertaklarni saqlab qolish va nashr qilishda jonbozlik ko'rsatmoqda. Ayniqsa turkiy dunyo folklorining salmog'i hozirgi kunda o'rganilishga muhtoj sanaladi, chunki turkiy xalqlarning og'zaki ijodi o'ta boydir. Shu sababli bu dunyoni ko'pchilik olimlar shuningdek jahon olimlari ham ularni o'rganishga bel bog'lagan. Tarixiy davrlardan bu ikki xalq Dashti Qipchoq, Movarounnahr hududlarida birga yashaganligi tufayli bu xalqlarda umumiy jihatlar shakllangan. O'zbekiston va Qozog'iston mustaqillikka erishgandan so'ng milliy madaniy ildizlariga qaytish siyosatini olib bordi. Bu esa xalq og'zaki ijodi bo'lgan folklori ertak, doston, maqol va matallar, topishmoq va turli xil xalq qo'shiqlarini to'plash ishlarni kuchayishiga sabab bo'ldi va to'plangan ertaklar bir necha kitoblarga jamlandi. Bu borada o'zbek xalq ertaklari 3 tom qilib jamlangan bo'lsa, qozoq xalq og'zaki ijodi yuz tomlik “Бағалар сөзі” kitobining besh tomi ya'ni 73,.....77 tom ertaklar jamlanmasini tashkil etdi. Qolaversa hozirgi kunda davlatimiz miqiyosda chet tillarni o'zbek til bilan chog'ishtirib, lingvomadaniy jihatdan solishtirib o'rganishga bo'lgan e'tibor qardosh xalqlar misolida ham kuchaygan. Chog'ishtirib o'rganish esa ikki xalq frazeologizmlarining genetik umumiy ekanligini va tipologik o'xshashligini solishtirib o'rganish imkonini beradi. Bir xil turg'un birikmalarning har ikki tilda turlicha ma'no anglatishi esa tilshunoslikda semantik maydon tushunchasini yuzaga keltiradi. Qiyosiy tahlil orqali birikmalarning ikki tilda farqli ma'no tomonlarni o'rganish imkoniga ega bo'lamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Jahon folklorshunosligida ertak va undagi obrazlar mavzusi yoritilgan A.Aarne, S.Tompson, K.Briggs, J.Zayps, J.Jeykobs, A.F.Stil, A.Skoley, R.Bottighaymer, D.Feng, E.S.Hartland, K.Rayxl, M.Grin, Sh.De Koster, R.Kervenlarning tadqiqotlari diqqatni tortadi [Xalilova 2023; 6].

Ertaklarni o'rganishda jahon folklorshunos va ertakshunos olimlari katta hissa qo'shishgan bo'lib, jumladan fin folklorshunosi A.Aarne “The Types of the Tale” kitobida ertaklar tasnifi bo'yicha ishlagan. Olim ertaklarni mavzu va syujetiga ko'ra turlarga bo'lgan. Ingliz olimi



S.Tompson esa o‘zining “The folktale” kitobida ertaklarning tarqalishi, tarixi, qolaversa Shimoliy Amerika ertaklari bilan Yevropa va Osiyo ertaklarini qiyosiy tahlil qilgan.

O‘zbek folklorshunosligida H.Zaripov, M.Afzalov, G‘.Jalolov, K.Imomov, T.Mirzayev, X.Egamov, M.Murodov, M.Jo‘rayev, J.Eshonqulov, Sh.Turdimov, S.Mirzayeva, D.O‘rayeva, O.Qayumov, Ch.Jumayeva, Z.Rasulovalarning tadqiqotlarida epik obrazlar, epik qahramonlar masalasida nazariy qarashlar uchraydi [Egamov 1982; 344]

Bundan tashqari, B.Karimov, F.Abdullayev, K.Imomov, G‘.Jalolov, T.G‘oziboyev, R.Safarov kabi olimlar ertaklarni to‘plash va yozib olishda katta yutuqlarga erishdi. Qiyosiy folklorshunoslikda esa ko‘pgina olimlarimizning qo‘shgan hissasini alohida qayd etib o‘tish lozim. Misol uchun qiyosiy folklorshunoslikda Y.Nurmurodov, M.Jo‘rayeva, R.Shirinova, R.Fayzullayev, H.Yusupova, O.Fayzullayev, N.Jumayeva, S.Axmedova, A.Jumayevlarning dissertatsiyalarini alohida ta’kidlashimiz mumkin. Turg‘un birikmalar nazariyasiga ko‘p jahon olimlari o‘z hissasini qo‘shishgan. Jumladan Sh.Balli, V.V.Vinogradov, A.V.Kunin kabi olimlar. Qolaversa, B.Yo‘ldoshev ham o‘zining “O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari” monografiyasida turg‘un birikmalar tushunchasiga to‘xtalib o‘tadi.

Frazeologiya fanining rivojlanishini B.Yo‘ldoshev uchta davrga bo‘lgan. Birinchi davr. XVIII asrning o‘rtalaridan XX asrning 30-yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr frazeologik tadqiqotlarning yo‘liga qo‘yilishi M.V.Lomonosov, V.I.Dali, A.A.Potebnya, F.F.Fortunatov, F.I.Buslayev, Sh.Balli, A.A.Shaxmatovning ilmiy faoliyati bilan bog‘liq. Ikkinchi davr. Y.D.Polivanov, V.V.Vinogradov, S.I.Abakumov, G.K.Danilov, G.O.Vinokur, V.N.Derjavin, A.I.Efimov, A.Y.Rojanskiy, I.Y.Anichkov kabi olimlarning ilmiy faoliyati bilan bog‘liq holda rivojlanadi va XX asrning 30-50- yillarini o‘z ichiga oladi. Uchinchi davr esa 20 asr 30-yillaridan hozirgachadir [Yo‘ldoshev 2013; 4].

Muhokama va Natijalar.

Qilich botir ertagidagi turg‘un birikmalar tahlili. Hamma ertaklarda bo‘lgani kabi bu ertakda ham qoliplardan foydalanilgan. “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir zamonda...” an’anaviy boshlanma bo‘lib, makon va zamonning noaniqligi, qarma-qarshiligini ifodalash bilan birga, tinglovchini o‘ziga tortdi va bu olamdan sehrli ertaklar olamiga olib o‘tuvchi bir “ko‘prik” vazifasini bajaradi. Bu boshlanma dunyoning o‘tkinchi ekanligini bir narsa hozir bo‘lsa, vaqti kelib bo‘lmasligi mumkinligini bildiradi. Mifologik jihatdan qaraydigan bo‘lsak, “Bor” – hayot, borliq, “Yo‘q” esa o‘lim va yo‘qlikni ifodalaydi, deb olsak ham bo‘ladi.

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan xalq ertaklarining boshlanishida aytiladigan ibora, qissaning boshlanishi [Rahmatullayev 2022; 79].

– Yo‘l bo‘lsin, og‘ayni, – debdi [O‘zbek xalq ertaklari; 2013; 252].

kimga? qayerga ketyapsiz? qayerga bormoqchisiz? (so‘rash).

“Yo‘l bo‘lsin?” – dedi chol. “Ko‘pdan quruq qolma deydilar. Anav vaqtda patir ushatildi degan edingniz, bugun kichik to‘y kelayotgan emish, shunga ketyapman”.

2 qayoqda! (biror ishni) qila olarmidi?! (ta’kid).

“Siz ham yozasizmi?” – “Bizga yo‘l bo‘lsin..., – deb kuldi Erkin. – Ishimiz – mashina haydash”. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

Yo‘l bo‘g‘ay: yo‘l bo‘lsin [Rahmatullayev Sh; 2022; 583b].

Ertakda birinchi ma’nosi qo‘llanilayotgan bo‘lib, Qilich botirga, bo‘zchi qayerga bormoqchisiz? – deya savol bermoqda.

– Shu tomonda Qilich botir degan bir polvon chiqqan emish [O‘zbek xalq ertaklari; 2013; 252].

Bu gapda “chiqmoq” fe’li ibora vazifasida kelgan. Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da “chiqmoq” fe’li quyidagicha ifodalangan:

Chiqmoq – 2 (ko‘tarilmoq), chiqarmoq – avjga chiqarmoq; avjga chiqmoq; avjga chiqmoq; dunyoni sel olsa, to‘pig‘(i)ga chiqmaslik;...

3 (taralmoq, yoyilmoq), chiqarmoq – dong(i) chiqdi; dong chiqarmoq; nom(i) chiqdi; nom chiqarmoq [Rahmatullayev 1978; 364].

Shavkat Rahmatullayev “chiqmoq” fe’lining yana bir qancha ma’nolarini yozib o’tadi. Ertakda Qilich botirning tanilgan, nomi olamga mashhur botir bo’lganligini bu fe’l orqali ifodalangan.

Qozoq xalq ertagi “Qalabay botir”ning tahlili

Қалабай батыр, жасында **алмаған жауңыз** қалмады, енді арманыңыз да жоқ шығар,— деп көңілін жуатқандай болды [Бабалар сөзі; 2011; 178 б].

“**Көңілін жуатқандай**” iborasi o‘zbek tiliga “ko‘nglini yupatmoq” deya tarjima qilinadi. Bu ibora biron kishiga dalda bermoq, shirin va odamning kayfiyatini ko‘taradigan gaplar aytib, uni xursand qilish ma‘nosini bildiradi. Iborani qo‘llaganda ibora qaratilayotgan kishining ruhiy yoki jismoniy holati yaxshi bo‘lmaydi. Varianti: tasalli bermoq, ko‘ngl(i)ni ko‘tarmoq.

Biron kishning ruhiy jihatdan tushkunlik holaridan chiqarish jarayoni. Bu ibora qozoq xalq “Қазақ тілінің фразеологиялық сөздігі”da ham berilgan.

Ertakda “**алмаған жауңыз**” birikmasi qatnashgan bo‘lib, bu iboraga I.Kengisbayev quyidagicha ta’rif beradi.

Жауды алды. Дұшпанын қаратты, жеңді. Жақсы болған батырды, Батыр демей не дейміз, Айғай салып қамалға Кіріп жауды алған соң (Д.Б.) [Кеңесбаев I. Қ; 1977; 193 б.]

Yovni oldi. Dushmanini qaratdi, yengdi. Yaxshi botirni botir demay nima deymiz, hayqirib qamalga kirib yovni olgandan so‘ng. Gapda botirning yengishi mardligi madh etilgan. Ertakda shunga o‘xshash jumla keltiriladi ya‘ni “yoshligingizda olmagan yovingiz qolmadi”, deyilganda Qalabay botirning kuchli ekanligini, hech kimdan yingilmasligi ibora orqali ayon bo‘lib turibdi.

Көңілін жұбатыры ойға медет тұтары, алданыш етері. Көңіл жұбатар алдағы үлкен үміт бұлттан шыққан айдай, кейде, ол қуанып, дем беріп, қанат бітіріп қалғандай болады [Кеңесбаев I. Қ; 1977; 276 б.]

Kishining ko‘nglini ovutadigan, unga taskin beradigan, kelajakka umid beradigan so‘z, o‘y-fikr. Ba‘zan esa, bulutlar orasidan chiqqan oydek, ba‘zan esa, unga qanot bag‘ishlaydigan deya ta‘riflangan.

Қалабай батыр сөз бастады [Бабалар сөзі; 2011; 178 б].

Сөз бастады. Тұңғыш (бірден) әңгіме қозғады. Көк дауылдай боратып, сөз бастаңдар келелі. (Жамбыл). Қол бастау оңай, шабатын жерде жау бар, көш бастау оңай, қонатын жерде су бар. Бәрінен де шаршы топта сөз бастау қиын, адам шешімін таппас дау бар (ШС) [Кеңесбаев I. Қ; 1977; 465 б.].

Xulosa qilib aytganda bu ikki xalq o‘zaro qo‘shnichilik aloqalari sababli xalq og‘zaki ijodi balki madaniyat va ma‘naviyat, din va qarashlar jihatdan ham bir birini to‘ldiruvchi xalqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalilova Sh.J. O‘zbek va ingliz ertaklaridagi yetakchi obrazlarning qiyosiy o‘rganilishi: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz, 2023. – 58 b
2. Egamov X. Sovet Sharqi turkiy xalqlari ertakchilik an‘analari aloqalari tanxidan ocherklar. - Toshkent: O‘qituvchi, 1982. – 344 b.
3. Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari. Monografiya.- Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2013.
4. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent, 2022. – 635.
5. “O‘zbek xalq ertaklari”: 3 jildlik. 1- jild. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2013. – 384 b.
6. Бабалар сөзі: 100 томдық. Батырлық ертегілер. – Астана: Мәдени мұра, 2011. – 75 т. – 424 б.
7. Кеңесбаев I. Қ. Қазақ тілінің фразеологиялық сөздігі. – Алматы : Ғылым баспасы, 1977. – 719 б.